

Ilmiy kadrlarni tayyorlash tizimi va uni takomillashtirish masalalari tahlil qilindi

Fanlar akademiyasida Vazirlar Mahkamasi, tegishli tizim tashkilotlari va mas'ullari ishtirokida o'tkazilgan iqtisodiy o'qishda FA Ilmiy kadrlar bo'limining 2019-2023 va 2024-yillar holati bo'yicha ilmiy kadrlarni tayyorlash tizimi va uni takomillashtirish masalalari tahlil qilindi.





Fanlar akademiyasi tizimida jami 5343 nafar xodim (oʻrtacha yoshi — 46), shu jumladan 2834 nafar ilmiy xodim (oʻrtacha yoshi — 47,3), ulardan 494 nafar fan doktorlari (DSc) (oʻrtacha yoshi — 56), 334 nafar fan nomzodi (oʻrtacha yoshi — 57,3) va 511 nafar falsafa doktori (PhD) va (oʻrtacha yoshi-38) faoliyat yuritmoqda.

2025 -yil holati boʻyicha Fanlar akademiyasi tizimida 32 ta tashkilotda oliy taʼlimdan keyingi taʼlim institutlari tashkil etilgan. Bugungi kunda mazkur tashkilotlarda jami 916 nafar, jumladan, 82 ta doktorant, 746 nafar tayanch doktorant, 88 nafar stajyor-tadqiqotchi va 130 nafar mustaqil izlanuvchilar tahsil olmoqda.

Bugungi kunda oliy taʼlimdan keyingi taʼlim jarayoni quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida olib boriladi:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-sonli "Oliy oʻquv yurtidan keyingi taʼlim tizimini yanada takomillashtirish toʻgʻrisida"gi Farmoni;
2. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son "Oliy taʼlimdan keyingi taʼlim tizimini yanada takomillashtirish toʻgʻrisida"gi qarori;
3. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 06-noyabrdagi 696-sonli "Ilmiy darajali kadrlarni tayyorlash jarayonlarining shaffofligini taʼminlash va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida" qarori.

Iqtisodiy oʻqish davomida Kadrlar boʻlimi rahbari Dilorom Toʻrayeva tomonidan Fanlar akademiyasi tizimidagi doktorantura, tayanch doktorantura va stajyor-tadqiqotchilar institutining 2019-2024-yillardagi samaradorligi toʻgʻrisida tahliliy maʼlumotlar berildi.